TERMIZ UNIVERSITETI

Ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-badiiy gazeta

BESHIKDAN QABRGACHA ILM IZLA

1990-yil may oyidan chop etila boshlagan ❖ №19-20 (409-410)-sonlar ❖ 2026-yil 31-oktabr ❖ QR kodni skaner qilib, TerDU veb-sahifasiga o‘ting!

21-oktabr – O‘zbek tili bayrami kuni

“RAQAMLI” DUNYODA RAHNAMO – ILM

Gurung

Termiz davlat universiteti rektori, professor Abduqodir TOSHQULOV bilan suhbat



– Universitetlarni mamlakat yuragiga mengzash mumkin. Yurak urishiga qarab davlatga tashxis qo‘ysa bo‘ladi. “Raqamli” dunyoda rahnamo – ilm.

Haqiqatga eltguvchi yagona vosita ham shudir. Bu yo‘lda sobitqadam bo‘lmas ekanmiz, dog‘da qolishimiz aniq. Abduqodir Hamidovich, o‘zingizga yaxshi ma’lum, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini rivojlantirish, isloh qilish – keng qamrovli, murakkab masala. G‘arbda universitet o‘qituvchilariga ortiqcha byurokratik vazifalar yuklanmaydi. Nazarimda, mamlakatimiz oliy ta’lim tizimida ham professor-o‘qituvchilar malakasini talabalar tomonidan baholash tizimini yo‘lga qo‘yish, har semestr yakunida o‘qituvchining dars berish mahorati, salohiyatini sarhisob etish darkor. Mustaqil ekani, ta’lim siyosatini o‘zi belgilagani bois Yevropaning aksar universitetlari erkin fikrlovchi insonlarni shakllantiradigan muassasa, davlat siyosati va jamiyat ahvolini baholaydigan muhim tizimga aylangan. “Ko‘hna qit’a”da asosiy e’tibor akademik halollik va akademik erkinlikka qaratilishini ham qayd etmoq joiz. Akademik erkinlik mamlakat o‘quv dargohlarining davlat siyosatidan mustaqilligi, oliy ta’lim va sohaning senzuradan xoli ekanini anglatadi. Suhbatimizni O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida akademik halollik va akademik erkinlik holatini baholashdan boshlasak.

– Aksar fikrlaringizga qo‘shilaman. Haqiqatan ham, XXI asrda davlatlar taraqqiyoti tabiiy boylik yoki geografik imkoniyatlardan ko‘ra ko‘proq ilm-fan va inson kapitaliga bog‘liq bo‘lib bormoqda. Oliy ta’lim esa mamlakatning intellektual salohiyatini ko‘rsatuvchi strategik tizimga aylanayotir.

G‘arb oliy ta’limidagi siz tilga olgan akademik erkinlik, professor mehnatini ortiqcha byurokratik yuklamalardan xalos qilish, talabaning o‘qituvchi faoliyatini baholashi kabi mexanizmlar zamonaviy universitet boshqaruvining muhim tarkibiy qismlaridir. Biz ularni shunchaki ko‘chirmay, milliy ta’lim tizimimiz xususiyatlari va taraqqiyot ehtiyojlariga moslashtirgan holda tatbiq etishimiz muhim deb hisoblayman. Akademik erkinlik va akademik halollik bir-birini to‘ldiruvchi qadriyatlardir.

(Davomi 5-6-sahifalarda)

Yuzma-yuz

SPORT FAOLIYATI FAKULTETI. Ilk uchrashuv ushbu fakultetning birinchi bosqich talabalari bilan o‘tkazildi. Unda universitet rektori Abduqodir Toshqulov yoshlarni talabalik baxtiga muyassar bo‘lgani bilan qutlab, ular o‘zbek sportining yangi avlodi, bo‘lajak chempionlari ekaniga ishonch bildirdi hamda respublika va xalqaro maydonlarda ulardan katta g‘alabalar kutayotganini ta’kidladi.

Samimiy muloqotda yosh sportchilar o‘z fikr-mulohazalari, taklif va tashabbuslarini bildirdilar. Rektor ularni qo‘llab-quvvatlash va mavjud masalalarni hal etish bo‘yicha mas’ullarga vazifalar belgiladi.

An’anaga muvofiq, talabalarga rektorning ezgu tilaklari va dastxati bitilgan Erkin A’zamning “Momaqaldiroq ostida sayr” romani sovg‘a qilindi.

(Davomi 3-sahifada)

“TALABALIKKA BAG‘ISHLOV” TADBIRLARIDAN REPORTAJ

Termiz davlat universitetida an’anaga aylangan “Talabalikka bag‘ishlov” tadbirlari bu yil yangicha formatda – rektorning birinchi bosqich talabalari bilan yuzma-yuz, ochiq va samimiy muloqotlari shaklida tashkil etildi.

Xushxabar

MUNOSIBLAR SAFIDA

Termiz davlat universiteti professori Xolboyeva Aziza Ixtiyarovna o‘zining “Yog‘ochni himoyalovchi antipiren-antiseptik” innovatsion ishlanmasi bilan “InnoWeek – 2026” doirasida o‘tkazilgan “Hududning eng yaxshi 100 ta innovatsion loyihasi” tanlovida munosib ko‘rilib, g‘oliblikni qo‘lga kiritdi.

Olimamizni ushbu yuksak e’tirof bilan samimiy qutlab, kelgusi ilmiy va innovatsion faoliyatida ulkan zafarlar tilaymiz!

TAHRIRIYAT

DELEGATSIYAMIZ MARKAZIY OSIYO XALQARO TA’LIM FORUMIDA

Toshkent shahrida “Markaziy Osiyo xalqaro ta’lim forumi” bo‘lib o‘tddi. Mazkur nufuzli xalqaro tadbirda Termiz davlat universiteti rektori, professor Abduqodir Toshqulov boshchiligidagi delegatsiya ham ishtirok etdi.

Forum doirasida xalqaro ta’lim hamkorligini kengaytirish, ilg‘or tajribalar almashish, ta’lim sifatini oshirish hamda ilm-fan sohasidagi o‘zaro aloqalarni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, forum doirasida tashkil etilgan “Study in Uzbekistan” xalqaro ko‘rgazmasida Termiz davlat universitetining ta’lim yo‘nalishlari, ilmiy salohiyati, xalqaro hamkorlik aloqalari va talabalar uchun yaratilgan imkoniyatlari namoyish etildi.

Mazkur forum TerDU uchun xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni mustahkamlash, qo‘shma ta’lim va ilmiy-tadqiqot loyihalarini rivojlantirish, akademik mobillik dasturlarini kengaytirish hamda xalqaro tajribani universitet faoliyatiga tatbiq etishda muhim muloqot maydoni bo‘lib xizmat qildi.

(Davomi 2-sahifada)

UMRINI ILM MEHROBIGA BAG‘ISHLAGAN USTOZ

(Professor Ahmad Abdullayev tavalludining 90 yilligi oldidan)

7

RESPUBLIKA KURASH TURNIRIDA unutilmas natijalar qayd etildi

4-sahifada



“LISONIY XAZINANG MING TEVAGA YUK...”



8

Ruhim qanoti

O‘ZBEK TILI – MILATIMIZ G‘URURI, MUSTAQIL DAVLATIMIZ TIMSOLI!

Surxondaryoda O‘zbek tili bayrami nishonlandi. 21-oktabr – O‘zbek tili bayrami kuni munosabati bilan Termiz shahrida tantanali tadbir bo‘lib o‘tdi.



Bayram Alisher Navoiy haykali poyiga gulchambarlar qo‘yish marosimi bilan boshlandi. Unda davlat va nodavlat tashkilotlar vakillari, tilshunos olimlar, shoir va yozuvchilar, ta’lim muassasalari o‘qituvchi va talabalari hamda harbiylar ishtirok etdi.

Tadbirda Surxondaryo viloyati hokimining O‘zbek tili bayrami munosabati bilan voha ahliga yo‘llagan tabrigini Termiz davlat universiteti rektori Abduqodir Toshqulov o‘qib eshittirdi.

Shuningdek, so‘zga chiqqanlar o‘zbek tilining boyligi, jozibasi va xalqimiz ma’naviy hayotidagi o‘rni haqida fikr bildirdi. 1989-yil 21-oktabrda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgani milliy o‘zligimizni anglash va mustahkamlash yo‘lidagi muhim tarixiy qadam ekani ta’kidlandi. Ona tilimizning nufuzini oshirish, uning qo‘llanish doirasini kengaytirish borasidagi ishlarning ahamiyatiga e’tibor qaratildi.

Ayni paytda bayram tadbirlari San’at saroyi majmuasida davom etdi.

O‘zbek tili – milliy o‘zligimiz va ma’naviy merosimizning ajralmas qismi. Uni asrab-avaylash, boyitish va kelajak avlodga yetkazish barchamizning burchimizdir.

Viloyat hokimligi Matbuot xizmati

DELEGATSIYAMIZ MARKAZIY OSIYO XALQARO TA’LIM FORUMIDA

Aytish lozimki, xalqaro ta’lim forumi Termiz davlat universiteti uchun yangi hamkorlik istiqbollarini ochmoqda.



Forum doirasida Termiz davlat universiteti rektori, professor Abduqodir Toshqulov nufuzli xalqaro reyting tashkiloti – “Round University Ranking” (RUR) muharriri va tahlil markazi rahbari Oleg Solovyov bilan uchrashdi.

Muloqot davomida universitetning xalqaro ta’lim maydonidagi nufuzini oshirish, jahon reytinglaridagi o‘rnini mustahkamlash, ta’lim sifati va ilmiy salohiyatini yuksaltirish hamda o‘zaro hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Tomonlar istiqboldagi hamkorlikni rivojlantirish yuzasidan kelishuvlarga erishdi. Shuningdek, RUR vakili Surxondaryo viloyatiga tashrif buyurishga taklif etildi.

Ma’lumot o‘rnida, RUR tashkilotining 2026-yilgi fanlar kesimidagi xalqaro reyting natijalariga ko‘ra, Termiz davlat universiteti 6 ta fan yo‘nalishi bo‘yicha jahon reytingidan joy oldi.

Xususan, universitet bir yo‘nalishda dunyoning TOP 500, yana to‘rt yo‘nalishda TOP 1000 oliy ta’lim muassasalari qatoriga kirdi.

TerDUning xalqaro reytingdagi natijalari:

Fizika-matematika ta’limi va texnologiyalari – 447-o‘rin,

Tabiiy fanlar – 913-o‘rin,

Gumanitar fanlar – 932-o‘rin,

Hayot haqidagi fanlar – 938-o‘rin,

Texnika fanlari – 981-o‘rin,

Ijtimoiy fanlar – 1036-o‘rin.

Mazkur natijalar universitetning xalqaro maydondagi mavqeyi mustahkamlanib borayotganini namoyon etadi. RUR bilan yo‘lga qo‘yilayotgan hamkorlik esa ta’lim va ilm-fan sifatini oshirish, xalqaro tajribani keng joriy etish hamda universitetning jahon ta’lim makoniga integratsiyalashuvini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Shamsiddin YODGOROV, Xalqaro bo‘lim boshlig‘i.

QarDU FAOLIYATI BILAN TANISHUV

Prezident topshirig‘i ijrosi

Surxondaryo, Samarqand, Buxoro, Xorazm va Navoiy viloyatlari oliygohlari rahbarlari QarDU faoliyati bilan tanishdi.

Bugun Surxondaryo, Samarqand, Buxoro, Xorazm va Navoiy viloyatlaridagi oliy ta’lim tashkilotlari rektorlari hamda tegishli soha prorektorlari Qarshi davlat universitetiga tashrif buyurib, oliygohda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari, ta’lim sifatini oshirish borasidagi islohotlar va yaratilgan zamonaviy shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar.

Tashrifning dastlabki manzili Tillar fakultetining zamonaviy o‘quv binosi bo‘ldi. Besh qavatli mazkur binoda fransuz, ingliz, koreys, nemis, rus va xitoy tillarini o‘rganish markazlari, Erasmus+ dasturlari ofisi, media studiya, sinxron tarjima auditoriyasi, lingafon xonalari, kutubxona, tibbiy muolaja xonasi hamda zamonaviy kompyuter xonalari faoliyat yuritadi. O‘quv va laboratoriya xonalari interaktiv doskalar hamda ilg‘or ta’lim jihozlari bilan ta’minlangan.

Shuningdek, Germaniyada qonuniy mehnat faoliyatini olib borishni maqsad qilgan bitiruvchi talabalar uchun intensiv nemis tili kurslari yo‘lga qo‘yilgan. Xitoyning Ansin pedagogika universiteti bilan hamkorlikda xitoy tilini o‘qitish, professor-o‘qituvchilar va talabalar akademik almashinuvini tashkil etish ishlari ham izchil davom etmoqda.

Bundan tashqari, o‘quv binoda PETA test markazi tashkil etilgan bo‘lib, unda TOEFL, ITEP va SAT kabi xalqaro imtihonlarni topshirish uchun talabalar hamda Qashqadaryo yoshlari uchun zarur imkoniyatlar yaratilgan. Mehmonlar ta’lim muhiti, xalqaro hamkorlik va talabalar uchun yaratilgan imkoniyatlar bilan tanishdilar.

Shundan so‘ng mehmonlar universitet hududida “Lochin” futbol klubi uchun barpo etilgan, Professional futbol ligasi talablariga to‘liq javob beradigan zamonaviy stadionni ko‘zdan kechirdilar. 1 400 nafar tomoshabinga mo‘ljallangan stadionda zamonaviy tribunalar, sun’iy qoplamali yugurish yo‘lagi hamda ikki qavatli ma’muriy bino barpo etilgan.

Shuningdek, respublika miqyosidagi nufuzli tadbirlarni o‘tkazishga mo‘ljallangan va yaqinda foydalanishga topshirilgan muhtasham Anjumanlar saroyi bilan tanishuv ham mehmonlarda katta taassurot qoldirdi.

Navbatdagi manzil – Talabalarga xizmat ko‘rsatish markazida mehmonlarga raqamli xizmatlar ko‘lamini kengaytirish va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar taqdim etildi. Agar 2024-yilda markazda 43 turdagi xizmat ko‘rsatilgan bo‘lsa, 2026-yilga kelib ularning soni 74 taga yetdi. Markaz faoliyati natijasida o‘quv jarayoniga oid hujjatlar raqamlashtirildi, murojaatlar soni kamaytirildi, xizmatlar tegishli platformalarga integratsiya qilindi, fakultet va kafedralar faoliyati optimallashtirildi. Shuningdek, inson omilini kamaytirish orqali korrupsiyaviy holatlarning oldini olishga qaratilgan mexanizmlar yo‘lga qo‘yildi. Tashrif ishtirokchilariga markaz tarkibida “Xavfsiz hudud – xavfsiz talaba” tamoyili asosida faoliyat yuritayotgan situatsion markazning vazifalari va imkoniyatlari haqida ham batafsil ma’lumot berildi.

Tashrif davomida mehmonlar Xalqaro ilmiy laboratoriyalar markazi faoliyati bilan tanishdilar. Hududning dolzarb muammolariga ilmiy yechimlar ishlab chiqishga ixtisoslashgan markaz tarkibida kimyo, tuproqshunoslik, yashil energetika, nanoelektronika, mikrobiotexnologiya, fiziologiya va sun’iy intellekt yo‘nalishlarida tadqiqotlar olib boruvchi 7 ta ilmiy laboratoriya faoliyat yuritadi.

Markaz faoliyatining asosiy maqsadi nazariy tadqiqotlarni amaliy ishlanmalar va tayyor mahsulotlarga aylantirishdan iborat. Shu asosda 2030-yilgacha 38 turdagi ilmiy ishlanma yaratish, 10 ta spin-off korxona tashkil etish hamda 27 milliard so‘mlik iqtisodiy samaradorlikka erishish rejalashtirilgan.

Tanishuv yakunida Yoshlar markazida seminar tashkil etildi. Unda universitet rektori D.Nabiyev so‘zga chiqib, Qarshi davlat universitetida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli o‘zgarishlar, istiqboldagi rejalar va erishilayotgan natijalar yuzasidan taqdimot qildi. Qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar zamirida davlat rahbari tomonidan oliy ta’lim tizimini rivojlantirish uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar muhim o‘rin tutishi ta’kidlandi.

qardu.uz

Olimlar safida

DISSERTATSIYALAR MUVAFFAQIYATLI HIMOYA QILINDI!

Termiz davlat universiteti rahbariyati va jamoasi ilmiy daraja olish uchun yozilgan dissertatsiya ishini muvaffaqiyatli himoya qilgan quyidagi professor-o‘qituvchilarni samimiy qutlaydi:



Sheraliyeva Munavvar Abdullayevna (Pedagogika va ijtimoiy ish kafedrasi o‘qituvchisi) – “Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi” ixtisosligidan “Oilada bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda ota-onalarning pedagogik-psixologik savodxonligini oshirish” mavzusida pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD);



Achilov Nuriddin Abdugafforovich (Pedagogika va ijtimoiy ish kafedrasi dotsenti) – “Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi” ixtisosligidan “Al-Hakim at-Termiziy ta’limoti vositasida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik tizimini takomillashtirish” mavzusida pedagogika fanlari doktori (DSc);



Eshmuratova Dildor Urolovna (Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi) – “Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti” ixtisosligidan “Ingliz religionimik birliklarining funksional va stilistik xususiyatlari” mavzusida filologiya fanlari doktori (DSc).

TAHRIRIYAT

Yuzma-yuz

Uchrashuv davomida talabalarning savollari, taklif va tashabbuslari tinglandi. Rektor yoshlarni chuqur bilim olishga, xorijiy tillarni o‘rganishga, arxeologik va tarixiy tadqiqotlarda faol ishtirok etishga, zamonaviy ilmiy yondashuvlarni egallashga chaqirdi.

“TALABALIKKA BAG‘ISHLOV” TADBIRLARIDAN REPORTAJ

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada)

O‘ZBEK FILOLOGIYASI VA JURNALISTIKA. Muloqotda milliy adabiy merosni chuqur o‘rganish, matnshunoslik va manbashunoslik yo‘nalishlarini rivojlantirish, qo‘lyozma manbalarni tadqiq etish va ilmiy muomalaga kiritish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Samimiy muloqot davomida talabalar o‘z fikr-mulohazalari, taklif va tashabbuslarini bildirdilar. Rektor ularni qo‘llab-quvvatlash, yoshlarning ilmiy va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun



zarur sharoitlarni yanada yaxshilash yuzasidan mas’ullarga topshiriqlar berdi.

Uchrashuv yoshlarning ilm-fan va ijodga bo‘lgan intilishlarini rag‘batlantirish, ular bilan ochiq va bevosita muloqotni mustahkamlashga xizmat qildi.

KIMYO. Samimiy muloqotda kimyo ilmini chuqur egallash, yoshlarni ilmiy izlanishlarga keng jalb etish, laboratoriya mashg‘ulotlari va amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish masalalariga e’tibor qaratildi.

Uchrashuvning eng ta’sirli lahzalari talabalarning samimiy fikrlari bilan bog‘liq bo‘ldi. Qiziriqlik Marjona Yo‘ldosheva maktab davrida rektor bilan uchrashib, TerDU talabasi bo‘lishni orzu qilgani va bugun ana shu maqsadiga erishganini hayajon bilan so‘zlab berdi. Fazilat Sharipova esa oilasining to‘rt nafar a’zosi aynan shu universitetda tahsil olayotganini faxr bilan ta’kidladi.

TABIIY FANLAR. Uchrashuvda ilm-fanga intilish, tadqiqotchilik salohiyatini rivojlantirish, talabalarning tashabbus va maqsadlarini qo‘llab-quvvatlash masalalariga e’tibor qaratildi.

Tojikistonlik talaba Jumabek Mamataliyev universitetdagi ilmiy muhit uning orzu va maqsadlariga yangi qanot bag‘ishlayotganini ta’kidladi.

IQTISODIYOT. Muloqotda zamonaviy iqtisodiy bilimlarni egallash, raqamli iqtisodiyot, tadbirkorlik tafakkurini shakllantirish, mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh mutaxassis bo‘lib yetishish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Rektor yoshlarni faqat nazariy bilim bilan cheklanmasdan, mustaqil fikrlashga, tashabbuskor bo‘lishga va o‘z g‘oyalarini amaliy loyihalarga aylantirishga undadi.

Samimiy ruhda o‘tgan uchrashuvda talabalar o‘z fikr va takliflarini bildirish imkoniga ega bo‘ldilar. Shuningdek, ular universitet prorektorlari va faoliyat yo‘nalishlari bilan tanishtirildi.

YURIDIK. Prezidentning 2020-yil 29-apreldagi PF-5987-son Farmoni asosida tashkil etilgan fakultetda bugun 2 494 nafar talaba tahsil olmoqda. Oliy sud, Bosh prokuratura va boshqa davlat organlari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. “Bo‘lajak prokurorlar klubi”da 17 nafar talaba amaliy tajriba orttirmoqda. Indoneziya pedagogika universiteti bilan qo‘shma ta’lim dasturi ham amalga oshirilmoqda.

– Bu dunyoning ishi adolat bilan qaror topadi”, – deya ta’kidlagan rektor halollik, adolat va qonuniylik har bir huquqshunosning bosh mezoni bo‘lishi zarurligini qayd etdi.

Samimiy muloqotda talabalar o‘z taklif va tashabbuslarini bildirdi. Rektor yoshlarning sifatli ta’lim olishi, ilmiy salohiyati va kasbiy mahoratini oshirish uchun sharoitlarni yanada yaxshilash yuzasidan mas’ullarga topshiriqlar berdi.

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI. Uchrashuvda rektor raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt jadal rivojlanayotgan bugungi davrda IT sohasi mutaxassislariga talab tobora ortib borayotganini ta’kidlab, yoshlarni zamonaviy bilimlarni puxta egallash, xorijiy tillarni o‘rganish va innovatsion g‘oyalar ustida ishlashga undadi. Fakultetda 1 ming 724 nafar talaba sun’iy intellekt, dasturiy injiniring, kompyuter injiniringi va boshqa istiqbolli yo‘nalishlarda tahsil olmoqda. Talabalarning xalqaro dasturlar, davlat stipendiyalari va innovatsion tanlovlardagi yutuqlari alohida e’tirof etildi.

ANIQ FANLAR. Muloqotda aniq fanlarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, ilmiy tafakkurni shakllantirish, nazariy bilimlarni amaliy natijalarga aylantirish hamda yoshlarni ilmiy izlanishlarga keng jalb etish masalalariga e’tibor qaratildi. Ayniqsa, bugungi shiddatli o‘zgarishlar davrida tayyor bilimlarni o‘zlashtirishning o‘zi yetarli emasligi, mustaqil fikrlash, muammolarga ilmiy yondashish va yangilik yaratishga intilish har bir bo‘lajak mutaxassisning muhim fazilati bo‘lishi lozimligi ta’kidlandi. Fakultetda 1 ming 423 nafar talaba va 70 nafar magistrant tahsil olmoqda. 53 nafar professor-o‘qituvchi faoliyat yuritayotgan jamoaning ilmiy salohiyati 66 foizni tashkil etadi. Xorijlik mutaxassislar bilan hamkorlik esa ta’lim va tadqiqotlar uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda.

TARIX. Rektor tarixchi nafaqat o‘tmish voqealarini o‘rganuvchi mutaxassis, balki tarixiy haqiqatni xolis yoritish, milliy xotirani asrash va uni kelgusi avlodlarga yetkazishdek mas’uliyatli vazifani bajaruvchi ziyoli ekanini ta’kidladi. Fakultetning xalqaro aloqalari ham izchil rivojlanib, Xitoy, Fransiya, Italiya, Chexiya, AQSh, Rossiya va boshqa davlatlarning nufuzli universitetlari hamda ilmiy tadqiqot markazlari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Mazkur aloqalar talabalar va yosh tadqiqotchilarning akademik mobilligi, xorijiy tajriba almashinuvi va ilmiy salohiyatini yuksaltirish uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda.

Uchrashuv davomida talabalarning savollari, taklif va tashabbuslari tinglandi. Rektor yoshlarni chuqur bilim olishga, xorijiy tillarni o‘rganishga, arxeologik va tarixiy tadqiqotlarda faol ishtirok etishga, zamonaviy ilmiy yondashuvlarni egallashga chaqirdi.

SAN’AT VA IJTIMOIY ISH. muloqot davomida talabalik yillaridan unumli foydalanish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, mustaqil izlanish, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish hamda kasbiy kamolotga erishish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Rektor yoshlarga o‘z sohalarining yetuk mutaxassisi bo‘lib yetishish yuzasidan tavsiyalar berib, ularga kitoblar sovg‘a qildi. Fakultetda bakalavriatning 12 ta ta’lim yo‘nalishi va magistraturaning 4 ta mutaxassisligi bo‘yicha kadrlar tayyorlanmoqda. Fakultet qoshida faoliyat yuritayotgan “Jayxun” folklor-etnografik xalq ansambli va orkestr jamoasi esa talabalarning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, milliy san’at an’analarini asrab-avaylash va rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

XORIJIY FILOLOGIYA. Bugungi kunda fakultetda 2 ming 230 nafar talaba tahsil olmoqda. 106 nafar professor-o‘qituvchi faoliyat yuritayotgan fakultetda xorijiy tillarni chuqur o‘rgatish, ilmiy izlanishlarni rivojlantirish va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Fakultetning Germaniyadagi Leypsig universiteti, “DAAD”, Britaniya Kengashi, “Alliance Franchaise” hamda “Erasmus+” dasturlari doirasidagi xalqaro hamkorligi talabalar va professor-o‘qituvchilar uchun akademik almashinuv, xorijda tajriba orttirish va ilg‘or ta’lim amaliyotlarini o‘zlashtirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.



* * *

Samimiy va ochiq ruhda o‘tgan uchrashuvlarda talabalar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar. Rektor yoshlarni soha bilimlarini puxta o‘zlashtirish, ilmiy izlanishlarda faol bo‘lish, xalqaro imkoniyatlardan unumli foydalanish hamda universitet hayotida tashabbuskorlik ko‘rsatishga chorladi.

Oybek YUSUPOV,
TerDU Matbuot xizmati.

DOKTORANTLARIMIZ YAPONIYADA

Xalqaro ilmiy stajirovka

Termiz davlat universitetining ikki nafar doktoranti Abduvali Xushboqov va Malika Qobilova Yaponiyaning nufuzli Kyushu universitetida “SAKURA SCIENCE Exchange Program” xalqaro ilmiy almashinuv dasturi doirasida qisqa muddatli ilmiy stajirovkada ishtirok etmoqda.

Yaponiya fan va texnologiyalar agentligi (“Japan Science and Technology Agency – JST”) tomonidan amalga oshirilayotgan mazkur dastur yosh tadqiqotchilarni ilg‘or ilmiy ishlanmalar, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion tadqiqot muhiti bilan yaqindan tanishtirishga qaratilgan.



Doktorantlar Kyushu universitetining ilmiy laboratoriyalari va ultramikroskopiya tadqiqot markazi faoliyati bilan tanishish, ilmiy ma’ruzalarda qatnashish hamda yoqilg‘i elementlari va perovskit quyosh batareyalari bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlarni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Shuningdek, dasturdan “Toyota”, “Mitsubishi”, “UBE Cement” kabi yirik sanoat korxonalari, geotermal elektr stansiyasi, quyosh va biomassa energetikasi obyektlariga ilmiy-amaliy tashriflar ham o‘rin olgan.

Ushbu xalqaro ilmiy stajirovka doktorantlarning ilmiy salohiyatini oshirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish, zamonaviy tadqiqot yondashuvlarini o‘rganish hamda kelgusidagi xalqaro ilmiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish uchun muhim imkoniyatdir.

Termiz davlat universiteti yosh tadqiqotchilarining xalqaro ilmiy dasturlardagi ishtiroki universitetning jahon ilm-fan makoniga integratsiyalashuvi yo‘lidagi muhim qadamlardan biridir.

Nazar ESANOV,
ilmiy ishlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i.

Muloqotlarning tantanali yakuni sifatida universitet stadionida 7 ming nafar talaba ishtirokida katta gala-konsert tashkil etildi.

RESPUBLIKA KURASH TURNIRIDA unutilmas natijalar qayd etildi

Maydonda sinalgan mardlar

Termiz davlat universitetida oliy ta’lim tashkilotlari talabalari hamda texnikum o‘quvchilari o‘rtasida kurash bo‘yicha respublika turniri o‘tkazildi. Musobaqada mamlakatning barcha hududlaridan kelgan 205 nafar polvon kuch sinashdi. Uch kun davom etgan bellashuvlar texnikum o‘quvchilari hamda oliy ta’lim tashkilotlari talabalari o‘rtasida alohida vazn toifalari bo‘yicha o‘tdi. Hakamlar qaroriga ko‘ra, g‘oliblar va sovrindorlar quyidagilar bo‘ldi.

Texnikum o‘quvchilari o‘rtasida

Erkaklar, 60 kilogramm

1-o‘rin – Nazarbek Qudratov (Surxondaryo viloyati, Sherobod tuman 1-son texnikumi);

2-o‘rin – Nizom Jaylovov (Qashqadaryo viloyati, Qarshi tuman 3-son texnikumi);

3-o‘rin – Baxodirxon Ishanxanov (Namangan viloyati, Pop tuman 3-son texnikumi) va Abdulaziz Abdullayev (Xorazm viloyati, Urganch shahar 1-son politexnikumi).

Erkaklar, 73 kilogramm

1-o‘rin – Sherzad Medetbaev (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus shahar 2-son texnikumi);



2-o‘rin – Davron Turdiqulov (Samarqand viloyati, Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi);

3-o‘rin – Aslbek Murodullayev (Qashqadaryo viloyati Ilg‘or kasbiy mahorat texnikumi) va Abdulxay Nurmuhammedov (Namangan viloyati, Uychi tuman 3-son texnikumi).

Ayollar, 57 kilogramm

1-o‘rin – Muslima Abdukodirova (Namangan viloyati, Yangiqo‘rg‘on tuman 2-son texnikumi);

2-o‘rin – Madinabonu Bozorboyeva (Jizzax viloyati, Zarbdor tuman 1-son texnikumi);

3-o‘rin – To‘maris Narzullayeva (Surxondaryo viloyati, Sherobod tuman 1-son texnikumi) va Gulnora Nazarova (Surxondaryo viloyati Ilg‘or kasbiy mahorat texnikumi).

Oliy ta’lim tashkilotlari talabalari o‘rtasida

Erkaklar, 66 kilogramm

1-o‘rin – Muhriddin Tilovov (Oriyental universiteti);

2-o‘rin – Ilg‘or Ayosov (Navoiy davlat universiteti);

3-o‘rin – Erkin Qodirov (Andijon davlat universiteti) va Maftunbek Eshboyev (Termiz davlat universiteti).

Erkaklar, 81 kilogramm

1-o‘rin – M. Eshdavlatov (Milliy universitet);

2-o‘rin – Bobur Yangiboyev (Termiz davlat universiteti);

3-o‘rin – Furqat Haydarov (Buxoro davlat universiteti) va Ziyodulla Ismatov (Qoraqalpog‘iston milliy universiteti).

Erkaklar, +100 kilogramm

1-o‘rin – Shohruxxon Baxtiyorov (Oriyental universiteti);

2-o‘rin – Jahongir Mamatrahimov (Termiz davlat universiteti);

3-o‘rin – Rustam Shoraxmatov (Termiz davlat universiteti) va A. Shaxnazarov (Urganch davlat universiteti).

Ayollar, 63 kilogramm



1-o‘rin – Fotima Qodirova (Guliston davlat universiteti);

2-o‘rin – Aziza Najimova (Samarqand davlat texnika universiteti);

3-o‘rin – Muxlisa Xolmurodova (Termiz davlat universiteti) va Mahliyo Julliyeva (Termiz davlat pedagogika instituti).

Ayollar, 78 kilogramm

1-o‘rin – Azoda Medetbayeva (Qoraqalpog‘iston milliy universiteti);

2-o‘rin – Charos Lolaxonova (Termiz davlat universiteti);

3-o‘rin – To‘ygul Xamroyeva (Buxoro davlat universiteti) va Sevinch Maxmudjonova (Guliston davlat universiteti).

Mezbon universitet vakillari ham sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritdi: Termiz davlat universiteti talabalari uchta kumush va uchta bronza medalini jamladi.

Tashkilotchilar barcha g‘olib va sovrindorlarni samimiy tabrikladi, sportchilarga yangi zafarlar va ulkan muvaffaqiyatlar tiladi.

Abdurazzoq USTOYEV,
Kurash turlari kafedrasi dotsenti.
Xalqaro toifadagi sport ustasi.

Yoshlik lahzalari

RAG‘BAT, ISHONCH VA KATTA GALA-KONSERT

Termiz davlat universitetida yangicha formatda tashkil etilgan “Talabalikka bag‘ishlov” tadbirlari munosabati bilan bayram konserti tashkil etildi.

Bu yil universitet rektori Abduqodir Toshqulov 11 ta fakultetga qabul qilingan, soni 6 mingga yaqin birinchi bosqich talabalari bilan yuzma-yuz, ochiq va samimiy muloqotlar o‘tkazdi. Uchrashuvlarda yoshlarning orzu-intilishlari, taklif va tashabbuslari tinglandi. Ularni qo‘llab-quvvatlash, bilim olishi va iste’dodini ro‘yobga chiqarishi uchun yaratilgan imkoniyatlar muhokama qilindi.

Muloqotlarning tantanali yakuni sifatida universitet stadionida 7 ming nafar talaba ishtirokida katta gala-konsert tashkil etildi.

Bayram davomida rektor yoshlar tashabbuslarini amaliy qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratdi. Jumladan, uchrashuvlarda o‘z loyihalarini amalga oshirish uchun texnik vositalar so‘ragan talabalarga noutbuk va “iPhone 18 Pro Max” smartfoni sovg‘a qilindi.

Taniqli estrada xonandasi Janob Rasul ishtirokidagi konsert dasturi va rang-barang lazer shousi bayramga o‘zgacha shukuh bag‘ishladi. Jo‘shqin kuy-qo‘shiqlar, minglab yoshlarning quvonchi va olqishlari universitet stadionini haqiqiy yoshlik bayramiga aylantirdi.

Tadbir ko‘tarinki ruhda o‘tdi va talabalar qalbida unutilmas taassurotlar qoldirdi. Bu yilgi “Talabalikka bag‘ishlov” nafaqat bayram, balki rahbar bilan talaba o‘rtasidagi samimiy muloqot, o‘zaro ishonch hamda yoshlar tashabbuslarini amaliy qo‘llab-quvvatlashning yorqin namunasiga aylandi.

Farhod ABDUMURODOV,
“Termiz universiteti”
muxbiri.







Zamonaviy universitet mehnat bozoriga tez moslasha oladigan, mustaqil fikrlaydigan va yangi sharoitda o‘zini o‘stira biladigan mutaxassis tayyorlashi lozim. Bu borada esa davlat, ish beruvchi va oliy ta’lim muassasasi bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilmog‘i darkor.

“RAQAMLI” DUNYODA RAHNAMO – ILM

Termiz davlat universiteti rektori, professor Abduqodir TOSHQULOV bilan suhbat

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada)

Akademik erkinlik haqiqatni izlash huquqini bersa, akademik halollik uni izlash madaniyatini vujudga keltiradi. Biri bo‘lmasa, ikkinchisi ham mazmunini yo‘qotadi.

Universitetning asosiy vazifasi faqat diplom berish yoki mutaxassis tayyorlash emas, balki haqiqatni izlash, mustaqil fikrlash va intellektual mas’uliyat madaniyatini shakllantirish hamdir. Erkin fikr bo‘lmagan joyda yangi bilim tug‘ilmaydi. Erkin fikr esa mas’uliyat va halollik bilan uyg‘unlashgandagina ilmga do‘nadi.

Shu ma’noda, akademik erkinlikni faqat huquqiy me’yor yoki boshqaruv mustaqilligi sifatida tushunmaslik kerak. U, eng avvalo, universitetning ichki intellektual muhiti, professorning mustaqil fikr bildirish imkoniyati, talabaning savol berish jur’ati va ilmiy bahs madaniyatida zuhur etadi. Kiroyi dorilfununda talaba tayyor javoblarni yodlashni emas, savol qo‘yishni, tahlil etishni va o‘z nuqtai nazarini dalillar bilan himoya qilishni o‘rganadi. Zero, har doim taraqqiyotga yangi javoblar emas, yangi savollar doyalik qilgan.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Universitetlarga akademik va moliyaviy mustaqillik berish, ta’lim dasturlarini erkin shakllantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash kabi qadamlar akademik erkinlik uchun huquqiy asoslarni yanada mustahkamladi. Bu o‘zgarishlar universitetlarga katta imkoniyatlar taqdim etish barobarida ularga yanada zalvarli mas’uliyat yuklayotir.

Akademik halollik masalasida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Plagiatga qarshi elektron tizimlarning joriy etilishi, dissertatsiya va ilmiy maqolalarga qo‘yiladigan talablarning kuchayishi, xalqaro ilmiy nashrlarda maqola e’lon qilish madaniyatining shakllanayotgani e’tiborga molik. Biroq akademik halollikni faqat texnik nazorat vositalari bilan ustuvor etib bo‘lmaydi. Plagiat dasturi matnni tekshirishi mumkin, ammo vijdonni taftish etolmaydi-da. Binobarin, akademik halollik muayyan o‘quv dargohidagi madaniyat va shaxsiy e’tiqod masalasidir.

Bugun jahon universitetlari o‘rtasida infratuzilma, reyting yoki diplom bobida emas, balki ishonch borasida raqobat kechmoqda. Qaysi universitetda erkin fikrlash, mustaqil tadqiqot, akademik halollik va ilmiy mas’uliyat kuchli bo‘lsa, o‘sha universitet dunyoda munosib o‘rin egallaydi.

Menimcha, endilikda bizning asosiy vazifamiz islohotlar mazmunini chuqurlashtirish bo‘lishi kerak. Akademik erkinlik nainki huquqiy hujjatlarda, universitetning kundalik hayotida ham namoyon bo‘lmog‘i darkor. Professor o‘z fikrini erkin ayta oladigan, talaba bahsga kirishishdan qo‘rqmaydigan, ilmiy haqiqat har qanday manfaatdan ustun turadigan muhit shakllangandagina universitet chinakam vazifasini bajaradi.

– Rivojlangan davlatlar bugun bir o‘q bilan ikki quyonni uryapti: ham ta’limdan mo‘may daromad olyapti, ham milliy mentalitet va tarixini yoyish orqali taraqqiyot yo‘liga kirgan davlatlarni o‘z yo‘rig‘iga solyapti. Masalan, 2023-yilda Germaniyaning 423 ta oliy ta’lim muassasasida tahsil olgan 2,92 million talabaning qariyb 460 ming nafarini xorijliklar tashkil etgan. Gyote vatanidagi ko‘plab universitetlar dunyoning eng ilg‘or ilm dargohlari ro‘yxatiga kiradi. Temir tartib-intizom bilan nom qozongan ushbu mamlakat universitetlari tadqiqotlar uchun mablag‘ni ayamaydi va xalqaro ilmiy hamkorlikda ham peshqadamdir. Fikrim bahsli tuyulishi mumkin, ammo men O‘zbekistonga sayyohlikdan ko‘ra ta’lim ko‘proq foyda keltiradi deb o‘ylayman. Sayyoh chaqirish uchun sarflanayotgan kuch va mablag‘ni ta’limga yo‘naltirganimizda yanada salmoqli natijalarga erishgan bo‘larmidik deng...

– Bu masalada mening fikrim boshqacharoq. Sayyohlik va ta’limni raqobatchi sohalar sifatida emas, mamlakatning ikki strategik kapitali sifatida baholash to‘g‘ri bo‘lur edi. Sayyohlik qisqa fursatda iqtisodiy samara keltirsa, ta’lim uzoq muddatli taraqqiyotga xizmat qiladi. Birinchisi daromad keltiradi, ikkinchisi bilim, texnologiya va inson kapitalini yaratadi. Jahonda “ta’lim eksporti” alohida iqtisodiy tarmoqqa aylangan. AQSh, Britaniya, Germaniya, Avstraliya, Kanada, Xitoy kabi davlatlar chet el talabalarini jalb qilish orqali milliardlab dollar daromad topmoqda. Eng muhimi, bu davlatlar dunyoga o‘z ilmiy maktabi, madaniyati, tili va qadriyatlarini



ham yoymoqda. Bu esa “yumshoq kuch”ning (soft power) eng ta’sirchan shakllaridan biridir. O‘zbekiston ham “ta’lim eksporti”dan samarali foydalanishi mumkin. Buning uchun universitetlarimizning xalqaro miqyosda raqobatga shayligini oshirish, ta’lim dasturlarini global mehnat bozori talabiga moslashtirish, ilmiy tadqiqotni kuchaytirish, xorijiy professor va talabalar uchun jozibador akademik muhit yaratish zarur.

Ta’lim va turizm bir-birini to‘ldiruvchi sohalar ekanini unutmaylik. Xorijlik talaba mamlakatga bir necha kunga kelib-ketadigan sayyoh emas, balki to‘rt-besh yil muqim yashaydigan, iqtisodiyotga hissa qo‘shadigan, mahalliy xizmatlardan foydalanadigan, yaqinlarini ham mamlakatga jalb qiladigan inson hisoblanadi. U nainki universitetning mijozi, mamlakatning kelajakdagi intellektual elchisi hamdir.

Xalqaro amaliyotda “akademik turizm” yoki “ta’lim turizmi” degan tushuncha shakllanganini bilamiz. Shu bois men masalani “sayyohlik yoki ta’limga e’tibor” tartibida emas, “ta’lim orqali intellektual iqtisodiyotni shakllantirish” tarzida qo‘yish tarafdoriman. Tabiiy resurslar bir kun borib tugaydi, ammo bilimga asoslangan iqtisodiyot doimiy o‘sish manbai bo‘lib qolaveradi. Agar inson kapitaliga sarmoyani oshirishni ustuvor vazifaga aylantira olsak, bu nafaqat ta’lim tizimi, balki sanoat, innovatsiya, texnologiya va turizmni ham yangi bosqichga olib chiqadi.

– Angliyada magistratura bosqichida tahsil olgan talabamiz Sasseks universitetidagi ilk suhbatni bunday xotirlagan edi: “Agar siz professorning gaplarini shunchaki ma’qullab, imtihonda qayta aytib bersangiz past baho olasiz. Biz shaxsiy fikringiz, professor nazariyasiga tanqidiy yondashuvingizni qadrlaymiz”. Darhaqiqat, dunyo universitetlarida talaba real bozorga tayyorlab boriladi. Tizim talabani muntazam izlanishga majbur qiladi. Talaba esnab o‘tiradigan tinglovchi emas, balki ijodiy fikrlaydigan, bahsda o‘z nuqtai nazarini asoslab beradigan mutaxassis o‘laroq namoyon bo‘ladi. Afsuski, bizda universitetlar va ish beruvchilar o‘rtasida manfaatli muloqot shakllanganicha yo‘q. Aksar ish beruvchilar “mahsulot” yaroqsizligidan yozg‘iradi. Ayrim ta’lim muassasalarida investitsiya niqobi ostida soxta tijorat shakllangani, qalbaki shartnomalar tuzilayotganidan ko‘z yumib bo‘lmaydi. Xorijdan professor-o‘qituvchi jalb etish ham ba’zan xo‘jako‘rsinga qilinayotgandek. Dual ta’lim – nazariya va amaliyot uyg‘unligi haqida ko‘p va xo‘b gapirdik, ammo oliy ta’lim mehnat bozorining tilini haligacha to‘liq topolmadi. O‘zbek nasiyadan ko‘ra naqdini xush ko‘radigan xalq. Gapning indallosini aytsak, nazariya va amaliyotning et bilan tirnoq bo‘lib ketishiga nima monelik qilyapti?

– Bu yerda asosiy muammo nazariya bilan amaliyotning qarama-qarshiligida emas, balki o‘zaro bog‘lanish mexanizmi to‘liq shakllanmaganida.

Zamonaviy universitet mehnat bozoriga tez moslasha oladigan, mustaqil fikrlaydigan va yangi sharoitda o‘zini o‘stira biladigan mutaxassis tayyorlashi lozim. Bu borada esa davlat, ish beruvchi va oliy ta’lim muassasasi bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilmog‘i darkor. Universitet bilan ish beruvchi o‘rtasidagi hamkorlikni bir martalik uchrashuv emas, balki doimiy institutsional munosabatga aylantirish muhimdir. Dual ta’limning mohiyati ham aynan shunda. Ish beruvchi ta’lim dasturlarini takomillashtirish, talabaning salohiyat-u layoqatini baholashda qatnashishi, professor-o‘qituvchilar esa ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalari bilan muntazam aloqada bo‘lishi kerak. Ana shunda nazariya hayotdan uzilmaydi, amaliyot ilmiy asosga ega bo‘ladi.

Xorijiy professorlarni taklif qilishda ham natijaga qarab baho bergan ma’qul. Chet ellik olimning universitetda ma’ruza o‘qib ketishi bilan murod hosil bo‘lmaydi. Agar u mahalliy mutaxassislar bilan qo‘shma tadqiqot olib borsa, laboratoriya yoki ilmiy maktab shakllantirsa, ta’lim dasturini yangilash, talabalarning ilmiy salohiyatini oshirishga hissa qo‘shsa – ana shu chinakam xalqaro hamkorlikdir.

Mehnat bozori muttasil o‘zgarishda. Diplomning o‘zi kifoya emasligi kundek ravshan. Ish beruvchi muammoni hal eta oladigan, jamoa bilan yelkama-yelka ishlaydigan, raqamli texnologiyalar, chet tilini puxta biladigan va eng asosiysi, mustaqil qaror qabul qilishga qodir mutaxassisga talabgor. Demak, universitet bilim berishdan tashqari layoqat, salohiyatni shakllantirishga ustuvor ahamiyat qaratishi zarur. Oliy ta’lim muassasalari hadeb mehnat bozori ortidan quvishi ham durust emas. Chunki dorilfunun faqat bugungi mehnat bozori uchun emas, ertangi iqtisodiyot uchun ham kadr tarbiyalaydi. Bu fundamental bilim, amaliy ko‘nikma va innovatsion tafakkur uyg‘unligini talab qiladi.

– Abduqodir Hamidovich, Sizning ijtimoiy tarmoqlardagi ilm-ma’rifat, axloqqa da’vat etuvchi chiqishlaringizni ko‘pchilik qiziqish bilan kuzatmoqda. “Ilm shahrining darvozasi” deya ulug‘langan Hazrat Alining “Ilmli shohga zavol yo‘qdir” degan hikmati bor. Xulafoi roshidinning so‘nggisi bo‘lgan faqih, muhaddis zot yana “Ko‘p toatdan oz ma’rifat yaxshi” deya uqtirgan. Bozor munosabatlari muhitida to‘lov-kontrakt tushunchasi yoshlarimizning qon-qoniga singib ketdi. Ayting-chi, vatandoshlarimiz qachon mutaraqqiy jamiyat a’zolaridek bepul ta’lim oladi?

– Ma’rifiy chiqishlarimni tilga oldingiz, rahmat. Bu asli hayotning o‘zi tug‘dirgan ehtiyoj. Ilm-fan va texnologiyalar jadal rivojlanayotgan, sun’iy intellekt inson faoliyatining barcha sohalariga kirib borayotgan davrda yashayapmiz. Biroq yoshlar orasida ma’naviy immunitetning zaiflashuvi, yengil muvaffaqiyatga intilish, hasad, loqaydlik, mas’uliyatsizlik kabi qusurlar ham kuzatilmoqda. Ma’rifiy chiqishlarimiz ana shu singari illatlarga qarshi kurash yo‘lida kamtarona urinishdir.

Hazrat Alining (roziyallohu anhu) hikmati chindan-da teran ma’noga ega. U zot ilmni davlat va jamiyat taraqqiyotining eng mustahkam poydevori sifatida baholagan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ta’limga sarflanayotgan mablag‘ni oddiy xarajat sifatida baholash to‘g‘ri emas. Bu – mamlakatning kelajagiga kiritilayotgan muhim sarmoyadir. Biroq har qanday sarmoya kabi uning ham iqtisodiy asoslari va moliyaviy mexanizmlari bo‘ladi.

Dunyoda mutlaqo bepul oliy ta’lim tizimi mavjud emas. Bu uchun davlat, jamiyat, xususiy sektor yoki ta’lim oluvchi haq to‘laydi. Masala mohiyati to‘lovda emas, balki har bir qobiliyatli yosh uchun sifatli ta’lim imkonini yaratishdadir.

Biz shartnoma puli miqdorini muhokama qilishga odatlanganmiz. Nazarimda, “Sifatsiz ta’lim mamlakatga qanchaga tushadi?” degan savol tegrasida ko‘proq mulohaza yuritishimiz lozim. Yaxshi ta’limga sarflangan mablag‘ni xomcho‘t qilish mumkindir, ammo nobop ta’lim keltirgan ziyon-zararni hisoblab bo‘lmaydi.

Kontraktning haqiqiy bahosi u tarbiyalagan mutaxassisda in’ikos etadi. Agar universitet bilimli, halol, mas’uliyatli, vatanparvar kadrni yetishtira olsa, demak, nafaqat oila, balki butun jamiyat sarmoyani to‘g‘ri sarflabdi.

Demak, “Ta’lim qachon bepul bo‘ladi?” emas, balki “Qachon har bir iqtidorli yosh, ijtimoiy ahvolidan qat’i nazar, sifatli ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘ladi?” degan masala diqqatimiz markazida bo‘lmog‘i lozim.

Mamlakatimizda ayni shu maqsad yo‘lida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat grantlari ko‘lamini kengaytirish, imtiyozli ta’lim kreditlari, ehtiyojmand oilalar farzandlarini qo‘llab-quvvatlash, xotin-qizlar va iqtidorli yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlar shular jumlasidan. Buning barchasi qobiliyatli yoshlar moliyaviy tanglik bois ta’limdan bebahra qolmasligiga qaratilgan.

Ilmga sarflangan mablag‘ni xarajat deb bilgan jamiyat tezkor natija kutadi. Ilmni sarmoya deb bilgan jamiyat esa uning mahsulini avlodlar taqdiri, mamlakat taraqqiyoti va millatning intellektual qudratida ko‘radi.

(Davomi 6-sahifada)

Universitet talabaga tanqidiy fikrlash, ma’lumotlarni tahlil qilish, haqiqat bilan yolg‘onni ajratish, muammoni mustaqil hal etish malakasini o‘rgatishi lozim. Bugungi “raqamli” dunyoda insonning munosib hayot kechirmog‘i ana shu bilim, ko‘nikma va fazilatlarga bog‘liq.

“RAQAMLI” DUNYODA RAHNAMO – ILM

Termiz davlat universiteti rektori, professor Abduqodir TOSHQULOV bilan suhbat

(Davomi. Boshlanishi 1-, 5-sahifalarda)

– Ilm-fanda yuzakilik, ko‘chirmakashlik ko‘paygani, nomunosib kishilarning ilmiy daraja olishga intilayotgani dilni xira qiladi. Yaqinda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi prezidenti Shavkat Ayupov bilan qilingan suhbat ijtimoiy tarmoqlarda bahs-munozara qo‘zg‘adi. “Oliy o‘quv yurtlari reyting ortidan quvib “PhD”bozlik kasaliga duchor bo‘ldi, ilmiy daraja olish kampaniyasi qachon tugaydi?!” deb yozg‘irayotgan yurtdoshlarimiz ko‘pchilikni tashkil etadi. “Rahbarlarning PhD yoki DSc bo‘lmoqqa intilishini qoralash noto‘g‘ri. Rahbar ham ilmiy darajaga ega bo‘lishga haqli”, degan nuqtai nazar ham yo‘q emas. Ijtimoiy fanlardagi yuzakilikdan gap ochilsa, ba’zi hamkasblarimiz “Miqdor o‘zgarishi pirovardida sifat o‘zgarishiga olib keladi”, deydi. Bu qarashning ziddi – hozirdan sifatga e’tibor qaratishni talab etuvchilar ham talaygina. Shunday davrda chin va soxta olimni ajratuvchi mahak toshi bormikan?

– Bu masalaga hissiyot bilan emas, balki aniq va xolis mezonlar asosida yondashish kerak. Hozir nafaqat bizda, dunyoning ko‘plab mamlakatlarida ilmiy darajaning qadrsizlanishi haqidagi xavotir ortib boryapti. Ilm-fan miqdor emas, ishonch bilan yashaydi. Ishonch susaygan joyda diplom ham, unvon ham o‘z qiymatini yo‘qotadi. Avvalo, ilmiy daraja quruq maqsad emas, ilmiy faoliyatning tabiiy natijasi bo‘lishi kerak. Afsuski, ba’zida bu ikki tushunchaning o‘rni almashib qoladi. Ilmiy izlanish haqiqatni anglash ehtiyojidan emas, lavozim yoki rasmiy talab uchun qilinsa, siz sanagan e’tirozlar tug‘ilishi tabiiy.

Rahbarlarning ilmiy daraja olishiga kelsak, men buni butkul inkor etmayman. Agar rahbar haqiqatan ham mustaqil tadqiqot olib borsa, yangi ilmiy g‘oya taklif qilsa, soha taraqqiyotiga hissa qo‘shsa, nega endi u ilmiy darajaga ega bo‘lmasligi kerak? Muammo rahbarning fan doktori bo‘lishida emas, balki ilmiy darajaning rasmiy maqom yoki obro‘-e’tibor vositasiga aylanib qolishida. Dissertatsiya – hali ilm yo‘lining boshi. Agar ilmiy daraja sohibi himoyadan keyin ham muntazam izlansa, yangi g‘oyalar yaratsa, shogirdlar tayyorlasa, maktab shakllantirsa, haqiqiy olim ekanini isbotlagan bo‘ladi.

Dunyoda olimlarning darajasi unvoni bilan emas, ilmiy ta’siri bilan o‘lchanadi. Maqola, risolalariga nechta olim murojaat etdi? G‘oyalari amaliyotga qanday ta’sir berdi? Qay bir muammoni yechishga hissa qo‘shdi? Ilmiy maktab yarata oldimi? Shu singari mezonlar olimning haqiqiy o‘rnini ko‘rsatadi.

Ijtimoiy fanlarda ham asosiy e’tiborni fikrning yangiligi, ilmiy dalilning ishonchliligiga qaratishimiz zarur. Ilmiy ishning qiymati sahifalar hajmi yoki chop etilgan maqolalar soni bilan emas, dissertant qo‘ygan savol va bergan javobining ilmiy salmog‘i bilan belgilanadi. Zotan, tarixda hech bir olimni diplomi mashhur qilmagan.

Halollik, intellektual mustaqillik va amaliy ahamiyatga ega ilmiy natija – bular kamina uchun chin olimni ajratuvchi mahak toshidir. Agar shu uch mezon mavjud bo‘lsa, unvon o‘z-o‘zidan qadr topadi. Ularsiz eng yuksak ilmiy daraja ham naf bermaydi. Nihoyat, ilmning eng oliy mezoni – vaqt. Beayov fursat soxta shuhratga ham, sun’iy reytinglarga ham, tasodifiy muvaffaqiyatlarga ham chek qo‘yadi.

– O‘tgan yil e’lon qilingan xalqaro tadqiqotda O‘zbekiston soxta ilmiy jurnallarda maqola chiqarish va ko‘chirmakashlik bo‘yicha dunyoda “yetakchi”lardan biri deb topilgani juda uyatli ish bo‘ldi-da. Ilmda son ketidan quvish, reytingga “boshqorong‘ilik” qachon barham topar ekan?

– Bu hol, shubhasiz, har bir olimni o‘ylantirishi kerak. Ilmiy muhitda soxtakorlik, ko‘chirmakashlik va rasmiyatchilikning kuchayishi butun mamlakat nufuziga soya soladi. Biroq masalani biryoqlama baholash ham to‘g‘ri emas. Keyingi yillarda yurtimizda ilmiy faollik keskin ortdi. Ilmiy daraja olayotgan tadqiqotchilar, xalqaro jurnallarda chop etilayotgan maqolalar soni ko‘paygani quvonarli, albatta. Lekin jadal miqdor o‘sishi davrida sifat masalasi ham kun tartibiga chiqadi.

Fikrimcha, muammoning asl sababi olimlarning ko‘pligi emas, noto‘g‘ri mezonlardir. Agar faoliyatning asosiy ko‘rsatkichi chop etilgan maqola, himoya qilingan dissertatsiyalar soni yoki reytinglar bo‘lsa, tabiiy ravishda son ortidan quvish kayfiyati paydo bo‘ladi. Qanday ko‘rsatkichni rag‘batlantirsak, tizim ham o‘shanga moslashadi. Agar son rag‘batlantirilsa – son ko‘payadi, sifat rag‘batlantirilsa – sifat o‘sadi. Ilmiy siyosatning asosiy vazifasi tanlovni to‘g‘ri belgilashdan iborat. Mutaraqqiy dunyo ham asta-sekin bibliometrik ko‘rsatkichlardan ilmiy ta’sirni baholashga o‘tmoqda.

Ilmiy halollik muammosi faqat plagiat dasturlari vositasida hal etilmaydi. Universitet va tadqiqot markazlarida shunday muhit shakllanishi kerakki, olim qo‘rqqanidan emas, vijdon talabi bois ko‘chirmakashlikka qo‘l urmasin. Son va reyting ortidan quvishga barham berishning eng samarali yo‘li – rag‘bat tizimini o‘zgartirish. Agar olimning obro‘si g‘oyalarining qiymati, jamiyatga keltirgan nafi, tayyorlagan shogirdlari va shakllantirgan ilmiy maktabiga qarab baholansa, mazmun-mohiyat uchun raqobat boshlanadi.

Yana bir haqiqatni unutmasligimiz lozim – ilmda oshig‘ich muvaffaqiyat qozonib bo‘lmaydi. Chin ilmiy natija yillar davomida bo‘y ko‘rsatadi. Shu bois ilmiy siyosatning bosh maqsadi qisqa muddatli statistik ko‘rsatkichlar emas, uzoq yillar davomida mamlakat intellektual salohiyatini oshiradigan mustahkam ilmiy maktablar yaratish bo‘lishi kerak. Ana shu qadriyatlar ilm-fan taraqqiyotining bosh mezoniga aylangan kundan e’tiboran, son ketidan quvish, soxta nufuz uchun poyga to‘xtaydi.

– Mamlakatimizda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilgan (2020). “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida” qonun (2024) ham jamiyatda ushbu illat payini kesishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Lekin OAV va ijtimoiy tarmoqlarda pora bilan ushlanayotgan rahbarlar haqidagi xabarlar ko‘p uchraydi. Soliq yukining og‘irligi, davlatning iqtisodiyotga haddan ziyod aralashuvi kabi omillar xufiyona iqtisodiyotni vujudga keltiradi, deydi mutaxassislar. Yashirin iqtisodiyot gullab-yashnagan davlatlar esa ofshor hududlarning mijoziga aylanishi ma’lum. Daromadlarni deklaratsiyalash tartibiga qachondir o‘tilar, ammo hozircha sarvatini “uzumni yeb, bog‘ini surishtirmaydigan” ajnabiy davlatlarda g‘amlayotgan yurtdoshlarimiz uchun mamlakatimizda ofshor hudud tashkil qilsak bo‘lmaydimi? Iqtisodchi olim sifatida shunga nima deysiz – davlat bundan yutmaydimi?

– Darhaqiqat, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashning institutsional, huquqiy asoslarini mustahkamlash borasida jiddiy qadamlar qo‘yildi. Biroq qonun va institutlarning mavjudligi muammoning barham topishini anglatmaydi. Korrupsiyaga qarshi kurash samarasi, avvalo, iqtisodiy munosabatlarning ochiqligi, davlat xizmatlarida inson omilining kamaytirilishi, nazorat va javobgarlik mexanizmlarining benuqson ishlashi bilan belgilanadi.

To‘g‘ri qayd etdingiz, xufiyona iqtisodiyot faqat soliqdan qochish istagining mahsuli emas. Soliq va ma’muriy yukning og‘irligi, ortiqcha tartib-qoidalar, ruxsat berish jarayonining murakkabligi, naqd pul aylanmasi va boshqa omillar ham biznesni norasmiy maydonga yetaklashi mumkin. Xufiyona iqtisodiyot kengaygan sari kapitalni yashirish, uni mamlakatdan tashqariga olib chiqish va turli xorijiy yurisdiksiyalarda saqlash ehtiyoji ham ortadi.

Shu ma’noda, “Nega o‘zimizda ofshor hudud tashkil etmaymiz?” degan savol iqtisodiy mantiqdan xoli emas. Nazariy jihatdan baholasak, davlat bundan yutishi ham mumkin. Kapital mamlakatda qoladi, moliyaviy xizmatlar bozori rivojlanadi, yangi kompaniyalar, ish o‘rinlari paydo bo‘ladi, investitsiya resurslari ko‘payadi. Ammo masalaning nozik tomoni bor. Kapitalni jalb qilish boshqa, uning manbasini surishtirmaslik boshqa. An’anaviy ofshor modellarining jozibasi yengil soliq yuki bilangina emas, balki moliyaviy maxfiylik, kompaniyaning haqiqiy benefitsiarlari



haqidagi axborotning sir tutilishi bilan ham bog‘liq edi. XXI asr moliyaviy tizimi esa tobora boshqa yo‘nalish – benefitsiar mulkdorlarni aniqlash, shubhali operatsiyalarni nazorat qilish, jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish va soliq axboroti almashinuvini kuchaytirish tomon bormoqda.

Ehtimol, ofshor hudud qisqa muddatda kapitalni jalb qilar, ammo uzoq muddatda davlatga qimmatga tushishi mumkin. Moliyaviy aldovlarga qarshi talablarning bo‘shashtirilishi mamlakat moliyaviy nufuzi, banklarning xalqaro munosabatlari va investitsiya muhitiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston bu masalada zamonaviy yo‘lni tanlamoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev kuni kecha “Toshkent xalqaro moliya markazi to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonunni imzoladi. Aslida bu qariyb o‘n yildan buyon amalga oshirilayotgan tizimli islohotlarning navbatdagi bosqichi hisoblanadi. Markaz Angliya huquqi asosida, alohida maqomga ega hudud sifatida faoliyat yuritadi. Shuningdek, u mustaqil tijorat sudi va ilg‘or xalqaro standartlarga asoslangan tartibga solish tizimiga ega bo‘ladi. Muhimi, imtiyozlar moliyaviy nazoratdan voz kechishni anglatmaydi. Jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi talablarga rioya etiladi. Toshkent xalqaro moliya markazini klassik ma’nodagi ofshordan ko‘ra Dubay yoki Ostona xalqaro moliya markazlari singari maxsus moliyaviy yurisdiksiyaga yaqin model sifatida baholash to‘g‘riroq. Bu yagona loyiha emas, balki mamlakatning xalqaro moliyaviy standartlar tomon izchil integratsiyalashuv siyosatining bir bo‘g‘inidir.

Demak, biz oldimizga “Kapital mamlakatdan chiqib ketishiga ehtiyoj qolmasligi uchun qanday iqtisodiy, huquqiy muhit yaratishimiz kerak?” degan savolni qo‘yishimiz lozim. Kapital suvga o‘xshaydi – qayerda to‘siq bo‘lmasa, o‘sha tomonga oqadi. Sarmoya, mablag‘ni ma’muriy yo‘l bilan saqlab turish amrimahol. Ammo adolatli soliq tizimi, kafolatlangan mulk huquqi, mustaqil sud, byurokratiyani jilovlash va ishonchli moliyaviy institutlar orqali uni mamlakatning o‘zida qoldirish mumkin.

Davlat uchun eng maqbul yo‘l – “Imtiyoz bor, lekin maxfiylik yo‘q; kapital erkin, lekin nazoratsiz emas” degan tamoyilga asoslangan moliyaviy muhitni shakllantirishdir. Toshkent xalqaro moliya markazi ana shu muvozanatni ta’minlay olsa, xorijda saqlanayotgan milliy kapitalni qonuniy ravishda mamlakatga qaytarishga ham xizmat qiladi.

– Sir emas, bugun kriptovalyuta, bitkoin savdosidan daromad topayotgan yoshlar ko‘payib bormoqda. Hakaton, haker, prompt, neyrotarmoq kabi atamalar kundalik hayotimizga jadal kirib kelmoqda. Sun’iy idrokni (SI) dastyor etmoqning samarali yo‘llarini izlash – zamonga qarab oyoq olish degani. Uning insoniyat hayotiga ta’siri haqida turlicha fikrlar bor. Raqamli pul, SIni faqat tahdid sifatida ko‘rayotganlarga munosabatingizni ham bilsak.

– Har bir texnologik inqilob qo‘rquv bilan qarshi olingani ma’lum. Matbaa ixtiro qilinganda muhofazakor qatlam endi kitob qadrsizlanadi, deya tashvish bildirgan. Kompyuter ommalashgach, odamlar ishsiz qoladi, degan xavotirlar yangradi. Internet paydo bo‘lganida esa uning foydasidan ko‘ra xavfi ko‘proq muhokama qilindi. Ammo vaqt shuni ko‘rsatdiki, gap texnologiyada emas, balki uni qanday qo‘llashda ekan.

Sun’iy idrokka raqib emas, aqlli yordamchi deb qaragan ma’qul. SI ma’lumotni tezkor ravishda qayta ishlaydi, tahlil etadi, matn yozadi, tarjima qiladi, tasvir yaratadi. Ammo u insonga xos vijdon, axloqiy mas’uliyat, savqi tabiiy, ijodiy kashfiyot va ma’naviy tanlovni to‘liq o‘zlashtira olmaydi. Shu bois kelajakda inson bilan SI o‘rtasida emas, balki SIdan samarali foydalana oladigan inson bilan undan foydalana olmaydigan odam o‘rtasida raqobat kuchayadi.

Tarixga nazar tashlasak, har bir texnologiya insonning jismoniy mehnatini yengillashtirgan. SI esa odamzodga aqliy mehnat bobida sheriklik da’vo etmoqda. Binobarin, uning ta’siri avvalgi texnologik inqiloblardan chuqurroq bo‘lishi tabiiy. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy “Kishiga necha kelsa mushkul hol, // Hikmat-u aql anga erur hallol” deya aql-u idrokni insonning eng buyuk boyligi o‘laroq ta’riflagan edi. SI – inson zakovati mahsuli. Demak, u insonning imkoniyatlarini kengaytirishi lozim.

SI ravnaqi oliy ta’lim oldiga ham muhim vazifalar qo‘ymoqda. Endi talabaga ma’lumot yodlatishning o‘zi yetarli emas. Chunki har qanday ma’lumotni bir necha soniyada SI vositasida topish mumkin. Universitet talabaga tanqidiy fikrlash, ma’lumotlarni tahlil qilish, haqiqat bilan yolg‘onni ajratish, muammoni mustaqil hal etish malakasini o‘rgatishi lozim. Bugungi “raqamli” dunyoda insonning munosib hayot kechirmog‘i ana shu bilim, ko‘nikma va fazilatlarga bog‘liq. Albatta, ilm-fan sohasida yangi xatarlar ham paydo bo‘layotir. Masalan, SI yozib bergan maqola yoki dissertatsiyani shaxsiy mehnat mahsuli sifatida taqdim etish qonunga ham, axloqqa ham zid. Bu borada universitetlar SIdan to‘g‘ri foydalanish madaniyatini shakllantirishi kerak.

Men yoshlarga hamisha bir fikrni aytaman: sun’iy idrok sizdan aqlliroq bo‘lishi mumkin, ammo u siz kabi mas’uljavobgar emas. So‘nggi qarorni baribir inson qabul qiladi. Ilmga sadoqat, axloqiy mezonlarga hurmat, Vatan oldidagi mas’uliyat va ijodiy tafakkurni biror bir algoritm yarata olmaydi.

Kamina SI va raqamli moliya tizimini yangi tamaddun bosqichi deb bilaman. Kimki texnologiya imkoniyatlaridan oqilona foydalanmasa – yutqazadi. Texnologiya kuch-qudratini inson manfaati, ilm-fan taraqqiyoti va jamiyat farovonligiga safarbar eta olganlar esa har jabhada g‘olibdir.

Olim TOSHBOYEV suhbatlashdi.
(“Tafakkur” jurnalining 2026-yil, 3-sonidan olindi)

Yaxshilar yodi



UMRINI ILM MEHROBIGA BAG‘ISHLAGAN USTOZ

(Professor Ahmad Abdullayev tavalludining 90 yilligi oldidan)

Sharq mumtoz madaniyati va tafakkurida shunday buyuk siymolar borki, ularning hayot yo‘li mashaqqatli izlanishlar, so‘nmas ma’rifat va chinakam ma’naviy jasorat timsoliga aylanadi. Shayx Sa’diy Sheroziyning mashhur bir hikmatida: “Olimning qalami siyohi shahidlar qonidan-da sharaflidir”, deya bejiz ta’kidlanmagan. Insoniyat tarixida millatning ma’naviy ildizlarini asrab-avaylash, ajdodlarning zavol bilmas merosini yangi avlodlarga bezavol yetkazishdek muqaddas va mas’uliyatli burchni o‘z zimmasiga olgan fidoyi muallim va olimlarning o‘rni beqiyosdir.

Ana shunday ilm fidoyilaridan biri, Sharq adabiyotshunosligi xazinasiga bebaho hissa qo‘shgan zabardast olim, nozikta’b matnshunos va mehridaryo murabbiy, filologiya fanlari doktori, professor Ahmad Abdullayev edi. Ustozning bosib o‘tgan hayot yo‘li — taqdirning og‘ir sinovlari va to‘fonlari qarshisida bukilmay, o‘z e’tiqodi va ilm-ma’rifat bayrog‘ini baland tutgan chinakam ziyoli umrining yorqin namunasidir. Olimlik u kishi uchun shunchaki kasb yoki unvon emas, balki ruhiy ehtiyoj, hayot mazmuni va butun borlig‘ini qamrab olgan muqaddas bir e’tiqod bo‘lgan. Ahmad Abdullayevning qalbida bolalikdan yongan so‘z san’atiga, Ro‘dakiy, Firdavsiy, Sa’diy va Hofiz merosiga bo‘lgan cheksiz muhabbat uni umr bo‘yi ilmning eng yuksak cho‘qqilari sari yetakladi.

Bugun ustoz tavalludining qutlug‘ 90 yilligini xotirlar ekanmiz, ko‘z o‘ngimizda nafaqat zahmatkash bir muhaqqiq, balki ikki qardosh — o‘zbek va tojik xalqlarining adabiy-madaniy aloqalarini mustahkamlash yo‘lida fidokorona mehnat qilgan, asl insoniy fazilatlar va yuksak axloq sohibi bo‘lgan ulug‘ ustoz siymosi qayta jonlanadi.

Ahmad Abdullayev 1936-yil 15-martda Surxondaryo viloyatining Boysun tumani, Bibishirin qishlog‘ida mudarris oilasida tavallud topgan.

Olimning madrasalarda egallagan ilmi davr siyosati taqozosi bilan o‘z boshiga balo bo‘lgan donishmand otasi 1937-yilgi qatag‘on va surgun qurboniga aylandi hamda 1942-yilda Omsk shahri qamoqxonasida vafot etgan. Yosh Ahmad Boysun elida faxrli “Bibiotun” nomi bilan tanilgan fozila onasi sharofati bilan o‘smirlik yillaridanoq ustoz Ro‘dakiy she’riyati, Shayx Sa’diy kalomi va Xoja Hofizning beqiyos baytlari ruhida kamol topdi. Oqila onaning saboqlari uning qalbida bolaligidanoq ilm-ma’rifat, adabiyotga nisbatan muhabbat uyg‘otdi hamda kelajak yo‘lini munavvar ayladi.

Ahmad Abdullayevning o‘smirlik va maktab davri ikkinchi jahon urushi va ushbu xonavayron qiluvchi urush ofatlarining asoratlarini tiklash yillariga to‘g‘ri keldi. 1943–1953-yillarda tug‘ilib o‘sgan maskanida (sobiq M.Gorkiy nomidagi o‘rta maktabda) tahsil oldi. Maktabni bitirgach, Tojikiston poytaxtiga keldi va shu yili Davlat pedagogika institutining (T.G.Shevchenko nomidagi) filologiya fakultetiga o‘qishga kirib, uni 1957-yilda tamomladi. Maktablarda o‘qituvchilarga bo‘lgan ehtiyoj tufayli unga tojik tili va adabiyoti muallimi sifatida o‘z qishlog‘iga yo‘llanma berildi.

Ikki yil davomida (1957–1959-yillar) qadrdon maktabida yoshlarga saboq berib, so‘ngra yana Dushanbega qaytdi va Tojikiston SSR Fanlar akademiyasi va Leningrad davlat universiteti aspiranturasida tahsil oldi. 1963-yilda Moskva shahrida mashhur rus sharqshunos olimi A.N.Boldirev rahbarligida “Adib Sobir Termiziyning hayoti va adabiy faoliyati” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. 1962-yildan 1991-yilgacha Tojikiston FA Ro‘dakiy nomidagi Til va adabiyot institutida kichik ilmiy xodim, katta ilmiy xodim va yetakchi ilmiy xodim lavozimlarida faoliyat ko‘rsatib, 400 dan ortiq ilmiy-tadqiqot maqolalari va monografiyalarini nashr etdi.

1983-yilda “XI asrning birinchi yarmi fors-tojik lirikasida janr va uslub masalalari” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. 1991–1996-yillarda – fuqarolar urushining notinch va tahlikali davrida Tojikiston qishloq xo‘jaligi institutining “Tojik tili va adabiyoti” kafedrasi mudiri lavozimida faoliyat olib bordi.1996-yilda O‘zbekiston Respublikasi Termiz davlat universiteti rahbariyatining taklifiga binoan Termiz shahriga kelib, mazkur universitetda tojik filologiyasi bo‘limi tashkil etilgan talabalariga saboq berib boshladi. Ustoz Ahmad Abdullayev 1996-yildan 2011-yilgacha professor lavozimida sermahsul mehnat qildi..

Ustoz Ahmad Abdullayevning ilmiy yutuqlari – so‘zimiz avvalida zikr etilgan o‘tgan asrning 60–70-yillari tojik adabiyotshunoslari avlodining boshqa vakillari singari keng qamrovli fors-tojik adabiyotining faqat muayyan bir shoiri yoki birgina davri bilan cheklanib qolmagan. Garchi olimning aksariyat tadqiqotlari XI–XII asrlar adabiyoti muammolariga daxldor bo‘lib, tojik adabiyotshunosligida ustozni aynan mana shu adabiy davrlarning zabardast tadqiqotchisi sifatida e’tirof etsalar-da, u kishining ilmiy ishlariga nazar tashlash shuni isbotlaydiki, uning ilmiy qiziqishlari doirasi nihoyatda keng bo‘lib, ustoz Ro‘dakiydan boshlab hozirgi zamon tojik va o‘zbek she’riyatigacha bo‘lgan jarayonlarni qamrab oladi. Ustozning ilmiy asarlari uch tilda — tojik, o‘zbek va rus tillarida yozilgan bo‘lib, ham nazariy muammolarni, ham adabiyot tarixi masalalarini o‘z ichiga oladi.

XI–XII asrlar adabiyotini to‘g‘ri va samarali tadqiq etish, shoirlarning hayoti va ijodiy merosini aniqlash, ushbu asrlar adabiy jarayoni, janr va uslubiy muammolari, adabiy oqimlar hamda fors-tojik adabiyotining mazkur samarali davriga xos saroy adabiyoti xususiyatlarini belgilab olish Ahmad Abdullayevni shunday xulosaga olib keldiki: eng avvalo, bu adabiyotning asosiy qismini tadqiq etish lozim, bu esa, shubhasiz, ustoz Ro‘dakiy merosi va “Ro‘dakiyona she’riyat”dir. Shu bois, Ahmad Abdullayev ilmiy faoliyatining muhim bir tarmog‘ini Ro‘dakiyshunoslik tashkil etadi. Uning dastlabki izlanishlaridan bo‘lgan “Ro‘dakiy merosini izlab” (“Tojikiston SSR FA Axborotnomasi. Ijtimoiy fanlar bo‘limi”, 1964, № 3) nomli ilk ilmiy maqolasidayoq “forsiy adabiyot piri”ning she’rlarini to‘plash va nashr etish masalasi kun tartibiga qo‘yilgan edi. “Ro‘dakiyona she’r” tadqiqi hamda Ro‘dakiy ijodining undan keyingi shoirlar, ayniqsa, XI–XII asrlar qalamkashlari she’riyatiga ko‘rsatgan ta’sirini o‘rganish professor Ahmad Abdullayevning eng muhim ilmiy tadqiqotlari qatoriga kiradi.

Olimning “Az ta’rixi ta’sir va e’tibori Rӯdakӣ” (“Ro‘dakiy ta’siri va e’tibori tarixidan”) (“Sadoi Sharq”, 1972, № 9); “Maktabi ustod” (“Ustoz maktabi”) (“Sadoi Sharq”, 1974, № 9); “Sabaqi Rӯdakӣ” (“Ro‘dakiy sabog‘i”) (“Sadoi Sharq”, № 9); “Ro‘dakiy hamda Unsuriy va Farruxiy” (“Ma’orif va madaniyat”, 29.08.1978); “Ro‘dakiy va Qatron” (“Adabiyot va san’at”, 15.09.1988); “Rӯdakӣ kosib ham bud” (Ro‘dakiy kosib ham bo‘lgan”) (“Komsomoli Toҷikiston”, 06.04.1988), “Maonii daqiq” (“Daqiq ma’nolar”) (“Toҷikistoni Sovetӣ”, 10.03.1985); “Ro‘dakiy va Navoiyning g‘arazgo‘ylari” (“Ovozi tojik”, 16.10.2002); “Ikkinchi Ro‘dakiy” (“Tafakkur” jurnali, Toshkent, 2002, № 4); “Ro‘dakiy va Navoiy – taqdir chiziqlari” (“Alisher Navoiy va fors-tojik adabiyoti” to‘plami, Toshkent); “Ro‘dakiy, Hofiz va Navoiy” (“Ovozi tojik”, 10.12.) kabi va boshqa ko‘plab maqolalari bevosita keyingi davr shoirlarining Odamushshuaro ijodidan ta’sirlanishi hamda Movarounnahr va Xurosonda Xuroson sabki yoxud “Ro‘dakiyona she’r” an’analarining davom etishi masalalariga bag‘ishlangandir.

Daqiqnazar tadqiqotchi mantiqiy dalillar va she’riy misollar vositasida ustoz Ro‘dakiy va uning zamondoshlari fors-tojik adabiyotida asos solgan badiiy an’analar keyingi asrlar, xususan, XI–XII asrlar shoirlari ijodida izchil davom etganini ilmiy asoslab beradi. Muallif tadqiqotlaridan ayon bo‘ladiki, Ro‘dakiy merosining ta’siri nafaqat uslub va bayon tarziga, balki so‘z san’atkorlarining g‘oyaviy-mazmuniy qarashlari hamda shoirona timsol va tasvirlar tizimiga chuqur singib ketgan.

Odamushshuaro ijodini tadqiq etish hech qachon Ahmad Abdullayevning e’tiboridan chetda qolmagan. XI–XII asrlar shoirlari she’riyati namunalarini o‘rganish va nashrga tayyorlash jarayonida – bu izlanishlar samarasi sifatida uning “Sabaqi Rudaki” (“Ro‘dakiy sabog‘i”) nomli ikki jildli kitobi (1984–1991-yillarda) chop etilgan bo‘lib, muallif unda ilmiy dalillar asosida X asr adabiy an’analari, ayniqsa, “ro‘dakiyona she’riyat” maktabining bardavomiyligini ko‘rsatib beradi. Ahmad Abdullayevning xizmati nafaqat ustoz Ro‘dakiy merosini ilmiy o‘rganishda, balki uni keng targ‘ib va tashviq etishda ham beqiyosdir. Ustoz Ro‘dakiyning rus tilidagi “Ro‘dakiy torlarini chertib...” (“По струнам Рудаки провёл рукой”) nomli 1991-yilda bosilib chiqqan saylanma she’rlar to‘plamiga yozilgan mukammal muqaddima aynan A.Abdullayev qalamiga mansubdir.

Shuningdek, muallifning “Abu Abdulloh Ro‘dakiy” tadqiqot-romani (Toshkent, 2013); “Ro‘dakiyni anglash xususida” maqolasi (“Ovozi tojik”, 18.07.2012); “Ro‘dakiy va Navoiy g‘arazgo‘ylari” (“Jayxun” jurnali (Termiz), 2008, № 1) hamda O‘zbekiston Respublikasida tojik va o‘zbek tillarida nashr etilgan Ro‘dakiy ijodi va uning qardosh xalqlar adabiyotiga ta’siriga bag‘ishlangan ko‘plab boshqa maqolalari fors-tojik adabiyoti, ayniqsa, Ro‘dakiy she’riyatini keng ommaga yetkazish va targ‘ib etishda muhim o‘rin tutadi.

Tojik adabiyotshunosligida Ahmad Abdullayevni, avvalo, XI–XII asrlar adabiyotining zabardast tadqiqotchisi sifatida taniydilar, chunki olim izlanishlarining asosiy qismi jahonshumul fors-tojik adabiyotining ana shu sermahsul davriga bag‘ishlangan. Professor A.Abdullayevning “Adib Sobir Termiziy” (1969); “Zahir Foryobiy” (1974); “XI asrning birinchi yarmi fors-tojik adabiyoti” (1979) va “XI asrning ikkinchi yarmi va XII asr boshlarida fors-tojik adabiyoti” (S.Sa’diyev bilan hammualliflikda, 1986) kabi ilmiy monografiyalari nafaqat shoirlarning hayoti va ijodini o‘rganishda, balki ular she’riyatining individual uslubini belgilash, badiiy xususiyatlari hamda mazkur davr adabiy oqimlari va tamoyillarini ochib berishda fundamental tadqiqotlar hisoblanadi. Saroy adabiyotini tadqiq etish, Unsuriy Balxiy, Farruxiy Sistoniy, G‘azoiriy, Manuchehriy Domg‘oniy, Adib Sobir Termiziy, Abulfaraj Runiy, Zahir Foryobiy kabi saroy shoirlari qasidalarining badiiy qirralarini aniqlash hamda ular nazmining estetik va tarbiyaviy xususiyatlarini yoritish muallifning yuqorida zikr etilgan risolalarida ilgari surilgan eng muhim masalalar sirasiga kiradi.

Zikr etilgan risolalar barobarida professor A.Abdullayev XI–XII asrlar adabiyotining muhim xususiyatlariga bag‘ishlagan ko‘plab maqolalarni e’lon qilgan bo‘lib, ularning har birida muayyan ilmiy yangiliklar mujassamdir. Muallif qasida janri tarixiga, xususan, ushbu davrda keng taraqqiy etgan madhiy qasidalariga yangicha nigoh bilan yondashib, ularning ma’rifiy va ma’naviy qiymatini yoritib berdi. Mumtoz adabiyotning nazariy masalalari, lirik janrlarning shakllanishi va evolyutsiyasi, adabiy uslublar hamda oqimlar muammolari professor A.Abdullayev o‘z risolalari va ilmiy maqolalarida chuqur tadqiq etgan mavzular sirasiga kiradi.

Ustoz A. Abdullayev XI–XII asrlar adabiyotini nazariy o‘rganish bilan bir qatorda, mazkur davr shoirlari merosining ilmiy-tanqidiy hamda ommabop matnlarini tayyorlash va nashr etish bilan faol shug‘ullangan.

O‘zbekistonda ustoz A.Abdullayevning ilmiy-ijodiy faoliyati ikki tilda olib borildi. Olim fors-tojik va turkiy-o‘zbek adabiyotining turli siymolariga bag‘ishlab tojik va o‘zbek tillarida ko‘plab maqolalar yozdi va matbuotida keng e’lon qilindi. Jumladan: “Mirzo Ulug‘bek va fors-tojik adabiyoti” (“Sino”, Toshkent–Tehron, 2008, № 30); “Navoiyning “Yoz” qasidasida fitnachilar ifshosi: Tabiat tasviri va ijtimoiy ohanglar uyg‘unligi” (“O‘zbek tili va adabiyoti”, Toshkent, 2008, № 1); “Ro‘dakiy va Navoiy g‘arazgo‘ylari: Ro‘dakiy va Navoiy ijodining g‘animlari” (“Jayxun”, Termiz, 2008, № 1); “Tasavvuf bo‘yicha muhim manba” (“O‘zbek tili va adabiyoti”, Toshkent, 2008, № 6); “Shoir Anvariy va Termiz” (“Termiz tarixidan lavhalar”, Toshkent: “San’at jurnali”, 2008) kabi va boshqa qator maqolalari klassik tojik va o‘zbek adabiyotining turli muammolarini tahlil etishga bag‘ishlangandir.

Professor A. Abdullayev ijodiy faoliyatining yana bir tarmog‘i – o‘rta maktab o‘quvchilari uchun darsliklar va ilmiy-ommabop (ilmiy-badiiy) kitoblar yaratishdan iboratdir. Jumladan, olim qalamiga mansub, 1991-yilda nashr etilgan “9-sinf uchun tojik adabiyoti” darsligi umumiy o‘rta ta’lim maktablarida uzoq yillar davomida asosiy darslik sifatida o‘qitib kelindi va u bugungi kunga qadar o‘zining yuksak ma’rifiy va tarbiyaviy ahamiyatini yo‘qotmagan. Shuningdek, muallif yuqori sinf o‘quvchilari uchun o‘tmish so‘z san’atkorlari: Abulqosim Firdavsiy, Umar Xayyom, Adib Sobir Termiziylarning hayoti va ijodiga bag‘ishlab, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va dunyoqarashiga mos ilmiy-badiiy ocherklar yozgan.

Zamonaviy tojik va o‘zbek adabiyoti masalalarini tadqiq etish professor Ahmad Abdullayev ilmiy faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Daqiqnazar olim zamonaviy tojik va o‘zbek adabiyotining turli qirralari, ikki qardosh xalqning ko‘p asrlik adabiy aloqalari, zamonaviy shoirlar she’riyatining o‘ziga xos xususiyatlari va shu kabi mavzularni tahlil qilib, bugungi adabiyotni o‘rganish va baholashga munosib hissa qo‘shgan. Jumladan: “Mahorati nasrnavisii ustod Aynӣ” (“Ustoz Ayniyning nasrnavislik mahorati”) (“Tojikiston”, 2000, № 4); “G‘afur G‘ulom va tojik adabiyoti” (“Sino”, Toshkent–Tehron, 2003, № 9); “Laboratoriyai she’rii us¬tod M.Tursunzoda” (“Ustoz M.Tursunzodaning she’riy laboratoriyasi”) (“Adab”, 2001, № 3); “Ilohiy do‘stlik” (“Muloqot”, Toshkent, 2003, № 3); “Lohutӣ va an’anai janrho” (“Lohutiy va janrlar an’anasi”) (“Gazetai muallimon”, 1987-yil 1-dekabr); “She’ri asil. Doir ba eҷodiyoti Gulnazar Keldӣ” (“Asil she’r. Gulnazar Keldi ijodi xususida”) (“Komsomoli Tojikiston”, 1986-yil 10-avgust); “Abdulla Qahhor va aro‘z muammosi” (“Sino”, Toshkent–Tehron, 2007, № 27) kabi maqolalari zamonaviy tojik va o‘zbek adabiyotini tadqiq etish va targ‘ib qilishda muhim o‘rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, professor Ahmad Abdullayev ilmiy faoliyatining qamrovi nihoyatda keng bo‘lib, ustoz Ro‘dakiydan tortib hozirgi davr yosh shoirlarigacha bo‘lgan jahonshumul fors-tojik adabiyotini tadqiq etish barobarida, tojik-o‘zbek adabiy aloqalari, adabiyot o‘qitish metodikasi hamda fors-tojik va o‘zbek mumtoz adabiyoti namunalarini nashrga tayyorlash masalalarini ham o‘z ichiga oladi. Daqiqnazar tadqiqotchi va yetuk olim tojik hamda o‘zbek adabiyotshunosligining shakllanishi va tadrijiy taraqqiyotiga o‘chmas va salmoqli hissa qo‘shdi.

Sharq she’riyatining sarvari Ustoz Abu Abdulloh Ro‘dakiy o‘z davrida hikmat bilan shunday deb yozgan edi:

“Hech ganҷe nest az farhang beh,
To tavonӣ, rӯy bar in ganҷ neh!”

(Dunyoda ilm-u ma’rifatdan ortiqroq xazina yo‘qdir, bor kuching bilan mana shu xazina sari yuzlan!)

Professor Ahmad Abdullayev mana shu abadiy da’vatga umr bo‘yi sodiq qolib, butun hayotini so‘z ganjining durdonalarini izlab topish, tadqiq qilish va xalqimizga tuhfa etishga sarfladi. Olimlik qismatining eng go‘zal mukofoti shundaki, haqiqiy olim jisman bu dunyoni tark etsa-da, uning yaratgan asarlari, qog‘ozga tushgan ezgu fikrlari va tarbiyalagan shogirdlari qalbida barhayot yashayveradi.

Ustoz Ahmad Abdullayev qoldirgan 400 dan ortiq ilmiy-nazariy tadqiqotlar, monografiyalar, maktab va oliy o‘quv yurtlari uchun yaratilgan puxta darsliklar hamda nashrga tayyorlangan mumtoz manbalar bugun ham, kelajakda ham filologiya ilmining oltin fondi bo‘lib xizmat qilishi shubhasizdir. Eng muhimi, u kishi nafaqat ilmning murakkab sirlarini ochdi, balki Surxondaryo vohasida, xususan, Termiz davlat universitetida o‘ziga xos filologik maktab yaratib, yuzlab yosh mutaxassislarning qalbiga ilmga muhabbat, Vatanga sadoqat va bag‘rikenglik urug‘ini qadab ketdi.

Bugun ustozning 90 yillik xotirasini chuqur ehtirom va cheksiz minnatdorlik tuyg‘ulari bilan yodga olar ekanmiz, u kishining ilmiy jasorati va pokiza nomi shogirdlari, safdoshlari hamda adabiyot ixlosmandlari qalbida abadiy muhrlanib qolishiga ishonamiz. Zero, umrini ilm mash’aliga bag‘ishlagan zotlarning xotirasi hech qachon so‘nmaydi, ular hamisha ma’naviyat osmonida porloq yulduz bo‘lib yo‘limizni yoritib turaveradi.

Ramazon ABDULLAYEV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Korrupsiyaning oqibatlari faqat biror idora yoki tashkilot doirasida qolib ketmaydi. Byudjet mablag‘larining talon-toroj qilinishi ta’lim, tibbiyot, qurilish va boshqa sohalar rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

“LISONIY XAZINANG MING TEVAGA YUK...”

Quyidagi yangi she’rlar Ona Til haqida! Ular orasida bir zamonlar TerDU talabasi bo‘lib, butun umrini Ona Til taraqqiyotiga bag‘ishlagan va bugungi kunda yirik olim, ustoz maqomiga yetgan, o‘zbek amaliy tilshunosligi sohasi asoschisi – filologiya fanlari doktori, professor Baxtiyor Mengliyevning (“X-muallif”) ham, ayni kunlarda mazkur oliy ta’lim muassasasida tahsil olayotgan yosh mualliflarning ham ovozlari mavjud. Ona til haqidagi bu ovozlar: umidbaxsh, o‘ktam, kurashchan! Yashasin, Ona Til! Yashasin, Ovozlar!

TAHRIRIYAT

TEXNO-LINGVISTIK-RAQAMLI-KONSEPTUAL SHE’R

Data bazalarning bag‘rini yoqqan
Lisoniy xazinang ming tevaga yuk.
Kvant modellari anglayolmagan
Onto-mohiyating shunchalik buyuk.

Mana, bugun katta til modellari
DNK ngni havas-la tavof etmoqda.
Genetik yadrongni o‘zlashtirolmay
Superkompyuterlar qizib ketmoqda.

Tilim, qutlug‘ bo‘lsin virtual siymong,
Korpuslar bag‘rida umrbod yasha.
Men esa – Baxtiyor – kezay sen bilan,
Neyron va raqamli kengliklar osha.

X-muallif

ONA TILIM

Uzoq moziylardan kelar ovozing,
Hatto, shivirlaydi azim sahrolar.
Nogahon bir bog‘da yurgan chog‘imda,
Sen haqda bulbullar o‘qir navolar.

Tanishdir bu ovoz, ko‘ngilga yaqin
Navolaring tinglab olaman rohat.
Chorasiz, umidsiz yurgandim horg‘in
Mana, men topdim-ku seni nihoyat.

Xalqimga bosh bo‘lding erkinlik sari
Yurding, yiqilganni turg‘azding, tilim.
Sensiz bo‘lmas edi bularning bari,
Bilmam, neni so‘zlar bu ojiz tilim.

Nizomiddin HAMRO,
O‘zbek filologiyasi va jurnalistika fakulteti talabasi.

ONA TILIM

Onam allasiga kuy-navo, dilsan,
Ko‘ngildan suv ichgan tashna ko‘ngilsan.
Nurafshon tuyg‘ular baxsh etgan tilsan,
Ona tilim mening, jonajon tilim.

Shu tilda so‘zlagan necha ming olam,
Bu tilda alyorlar kuylanar har dam,
Bu tilda yangraydi, quvonch-u, nolam,
Ona tilim mening, jonajon tilim.

Sen millat ruhisan, tarixsan boqiy,
Va senda so‘zlagan Mahmud Koshg‘ariy,
Ulug‘bek, Gulxaniy, buyuk Navoiy
Ijodi jo‘sh urgan, jonajon tilim.

Avloddan avlodga o‘tgan dostonim,
Seni qadrlayman, sen jonajonim.
Bu dunyo turguncha – mangu dostonim,
Ona tilim mening, Onajon tilim.

Dinora SAIDMURODOVA,
Xorijiy filologiya fakulteti talabasi.

ONA TILIM

Alla bo‘lib kirding dilimga,
Qo‘shiq bo‘lding shodon kuyimga.
Mangu yasha mening baxtimga,
Buyugimsan, sen, ona tilim!

Dadam aytgan o‘gitda borsan,
Onam degan so‘zimda borsan.
Zabonimda, shukurki, borsan,
Buyugimsan, sen, ona tilim!

She’rlar bitsam sayqallagan – sen,
Vatanimni ulug‘lagan – sen.
Doim asrab yuraman-da men,
Buyugimsan, sen, ona tilim!

Navoiylar qoldirib ketgan,
Abdullolar avaylab o‘tgan.
Qo‘shiqchilar nola baxsh etgan,
Buyugimsan, sen, ona tilim!

Ardoqlayman toki bor kuchim,
E’zozlamoq – o‘g‘lonlik burchim.
Sening bilan go‘zal she’r bitgum,
Buyugimsan, sen, ona tilim.

Shuhrat TO‘RAYEV,
O‘zbek filologiyasi va jurnalistika fakulteti talabasi.

Korrupsiya jamiyat taraqqiyotiga to‘sqinlik qiladigan, adolat va ishonchni yemiruvchi jiddiy muammolardan biridir. U pora olish yoki berish, tanish-bilishchilik, mansab vakolatini suiiste’mol qilish kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Eng xavflisi, bu holat odatiy hol sifatida qabul qilina boshlasa, jamiyatning ma’naviy asoslariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq

ICHDAN YEMIRADIGAN XAVFLI ILLAT

Antikorrupsiya

korrupsiyaga qarshi samarali kurashish faqat qonun va nazorat bilan cheklanmaydi. Bu jarayonda har bir insonning halolligi, vijdoni va mas’uliyati muhim ahamiyatga ega.

Korrupsiyaning oqibatlari faqat biror idora yoki tashkilot doirasida qolib ketmaydi. Byudjet mablag‘larining talon-toroj qilinishi ta’lim, tibbiyot, qurilish va boshqa sohalar rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa, oxir-oqibat, xalq farovonligiga daxl qiladi.

Korrupsiya bor joyda adolat va ishonch zaiflashadi. Halol mehnat qilayotgan inson o‘zini qadrsiz his qilishi, yoshlarda esa “halol yo‘l bilan maqsadga erishib bo‘lmaydi” degan noto‘g‘ri qarash shakllanishi mumkin. Shu bois korrupsiyaga qarshi kurashish – kelajak avlod tarbiyasi bilan ham uzviy bog‘liq.

Islom dinida ham pora, nohaqlik va o‘zganing haqini yeyish qattiq qoralangan. “Qur’oni Karim”ning “Baqara” surasi, 188-oyatida mol-mulkni nohaq yo‘l bilan o‘zlashtirishdan qaytariladi. Demak, halollik nafaqat huquqiy, balki ma’naviy va axloqiy qadriyat hamdir.

Korrupsiya iqtisodiyotga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. U raqobat muhitini buzadi, tadbirkorlik va investitsiyalarga to‘sqinlik qiladi, davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonchni susaytiradi. Shuning uchun korrupsiyaga qarshi kurashish barqaror taraqqiyotning muhim shartlaridan biridir.

Korrupsiyani faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar emas, balki butun jamiyat birgalikda yengish mumkin. Buning uchun pora bermaslik, tanish-bilishchilikka murojaat qilmaslik, halol mehnatni qadrlash va farzandlarga halollik tamoyillarini singdirish zarur.

Agarda siz universitetda korrupsiyaga oid huquqbuzarlik va manfaatlar to‘qnashuvi holatlariga duch kelsangiz oliygohning Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limining 76-221-7710 raqamli Ishonch telefoniga yoki bo‘limning korrupsion holatlar bo‘yicha murojaat boti: https://t.me/TerDUantiCorruption_bot hamda 91-575-20-01, 93-799-01-01, 98-775-77-58 uyali aloqa telefonlari orqali murojaat qilishingiz mumkin.

Ulug‘bek DEVONOV,
Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i.

BOZORLARDAGI TAHLILLAR

2026-yilning 1-yanvar holatiga Surxondaryo viloyatida tovar va moliya bozorida ustun mavqega va ustun muzokara kuchiga ega bo‘lgan 12 ta xo‘jalik yurituvchi subyektlar 7 turdagi mahsulot va xizmatlar bilan ro‘yxatga olingan bo‘lib, Hududiy boshqarma tomonidan, 2026-yilning to‘qqiz oyi davomida 38 ta tahlil ishlari olib borildi.

Shundan 14 ta bozorlar to‘liq, 7 ta bozor bo‘yicha ekspress va yana 17 ta tahlil bozor to‘yinganligi bo‘yicha amalga oshirildi.

Natijalarga ko‘ra tovar yoki moliya bozorlarida mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar ko‘rib borildi va raqobat muhitini rivojlantirish yuzasidan tegishli takliflar viloyat hokimligiga va Raqobat qo‘mitasiga kiritildi.

2026-yilning yanvar-iyun oylarida olib borilgan tahlil natijalariga ko‘ra 1 ta xo‘jalik yurituvchi subyekt 1 ta xizmat turi bo‘yicha ustun muzokara kuchiga ega deb topildi hududiy organning tegishli buyrug‘i qabul qilindi.

Natijada 2026-yilning 1-iyul holatiga kelib, Tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni va ustun muzokara kuchini egallab turgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar soni 13 tani, mahsulot (ish, xizmat)lar soni esa 8 tani tashkil qiladi.

Panji MUHAMMADIYEV,
Surxondaryo viloyat Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish hududiy boshqarmasi yetakchi mutaxassisi.

Obuna 2027



ISSN:20199203

TERMIZ UNIVERSITETI

HAMKORIMIZ: Termiz davlat universiteti

BOSH MUHARRIR:
Shofiyev Obid Baxtiyorovich

MUASSIS:
“Termiz davlat universiteti nashr-matbaa markazi” MChJ

TAHRIR HAY’ATI:
Abduqodir Toshqulov
Bekpo‘lat Umurqulov
O‘ral Xoliyorov
Nodira Uzakova
Nuriddin Achilov

Gazeta Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan 2018-yil 17-martda 11-004-raqam bilan qayta ro‘yxatga olingan.

Gazeta oyida ikki marta chop etiladi.
Tahririyat manzili: Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy.
Tel.: +99893-222-20-21. Elektron manzil: termizuniversiteti@umail.uz

Mas’ul kotib:
Alibek Omonturdiyev
Navbatchi muharrir:
Farhod Abdumurodov
Sahifalovchi:
To‘ra Rahmonqulov
Bosishga topshirish vaqti – 16.00
Topshirildi – 16.00

Gazeta “Termiz universiteti” tahririyatining kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

Bahosi kelishilgan narxda. Hajmi 2 bosma toboq. Qog‘oz bichimi A-3. Adadi – 2000. Buyurtma № G -

Bosmaxona manzili: Termiz shahri, Shukrona ko‘chasi, 19-A-uy. Gazeta “Surxon tongi”, “Заря Сурхана” birlashgan tahririyati bosmaxonasida chop etildi.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.